



## O'ZBEK TILIDA IBORALARNING QO'LLANISHI

Ismoilova Shamsiyabonu Ulug'bek qizi

**Annotatsiya:** *Iboralarning kelib chiqishi va o'zbek tilida qo'llanilishi.*

**Аннотация:** *Происхождение выражений и их употребление в узбекском языке.*

**Abstract:** *The origin of expressions and their use in the Uzbek language.*

**Kalit so'zlar:** *ibora, birikma, gap, sintaktik birlik, birikma, teng va tobe bog'lanish.*

**Ключевые слова:** *словосочетание, сложное слово, предложение, синтаксическая единица, сочетание, равноправная и подчинительная связь.*

**Key words:** *phrase, compound, sentence, syntactic unit, combination, equal and subordinate connection.*

Bilamizki, dunyo paydo bo'lgandan buyon har bir til o'z doirasida, muloqot darajasida rivojlanib o'sib boradi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, til rivoji uchun topishmoqlar, matallar, tasviriy ifodalar va iboralar juda muhim ahamiyatga ega.

Ibora (arabcha)- biror bir tushuncha yoki gapning bir so'z bilan ifodalanishi. "Ibora" esa o'zgaruvchan bo'lgan biror ma'noning ifodalanishi, izoh yoki izhor deyiladi. Ibora xususiy so'zlar, jumladan, gaplashiladigan so'zlar, ayrim ma'no yoki ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan so'z to'plami bo'lib, bir matnni tushunish va ta'riflash uchun qo'llaniladi.

Iboralar fikrlashda, gaplashishda, yozishda va tushunishda juda muhim ahamiyatga ega. Iboralar, til va nutqning o'ziga xos tuzilmali imkoniyatlari va nuqtai nazarlari bilan gapni aniq va eifirlik bilan ifoda qilishga yordam beradi. Ularning samaradorligi va oddiylik bo'lgan usuli tilni amalga oshirishga yordam berad. Masalan, qovug'idan qor yoqyapti, kapalagi uchdi, tarvuzi qo'ltig'idan tushib ketdi, qovun tushirdi va hokazo. Ibora o'zi ifodalayotgan tushuncha bilan bir so'zga teng, lekin uslubi buyoqdorligi sababli bu tenglik buziladi, ya'ni ibora har doim uslubiy buyoqdor bo'ladi. Bir so'z bilan aytga iboralar o'z sinonimlari bo'lgan so'zlarga nisbatan ma'no mazmunini juda kuchli darajada ifodalaydi va ularda obrazlilikni aks ettiradi. Iboralar hayotdagi turli xil voqealarga guvoh bo'lish, odamlarning xilma xil xarakterlariga baho berish, tajribalarini va ko'nikmalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq dalillarga ega xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodasidir.

Iboralarga misollar:

**Avzoyi buzilmoq**- vajohati yomonlashmoqda, achchiqlanmoqda.

**Aravoni quruq olib qochmoq** - uddasidan chiqa olmaydiga ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq.

**Baxri dili ochildi**- kayfiyati yaxshilandi

**Boshi osmonga yetmoq** - juda xursand bo'lmoq.

**Bir o'q bilan ikki quyon urmoq** - ayni bir paytda ikki narsani ko'zlab ish tutmoq, amalga oshirmoq.



Besh barmog‘ini og‘ziga tiqmoq- hovliqib lozim bo‘lganidan ko‘ra ortiqroq narsani ro‘yobga chiqarish uchun intilmoq ,nafsga berilmoq.

Tirnoq orasidan kir qidirmoq – yomon niyat bilan deyarli aybi yo‘q kishining faoliyatidan ayb topishga harakat qilmoq.

Tepa sochi tikka bo‘lib ketdi – bir lahzaning o‘zida nihoyatda g‘azablendi.

Tomdan tarasha tushganday – qo‘qqisdan, kutilmagan holda va qo‘pol tarzda.

To‘nini teskari kiyib oldi – o‘chakishgan holda qaysarlik qildi;

To‘ydan oldin nog‘ora qoqdi – ro‘yobga chiqishi aniq bo‘lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtdan oldin gapirib yubordi;

U qulog‘idan kirib, bu qulog‘idan chiqib ketdi – e‘tibor bermay, xotirasida tutib qololmadi;

Xush keldi – yoqdi;

Xursandchiligi ichiga sig‘maydi – xursandchiligi oshib-toshib ketdi;

Yuragini oldirib qo‘ydi – bezillab qoldi;

Yuz ko‘rmas bo‘ldi – aloqani butunlay uzdi;

Yuragiga qil sig‘maydi – juda qattiq tajang bo‘lib, ruhan ezilib, hech narsa bilan mashg‘ul bo‘lolmaydi;

Yulduzi yulduziga to‘g‘ri keldi – bir-biriga mos bo‘ldi;

Chuchvarani xom sanabsan – xom hayol qilib yuribsan, xomtama bo‘libsan;

Kapalagi uchdi - qattiq cho‘chish bilan qo‘rqdi;

Kalavanning uchini topdi - jumboqni hal qilish yo‘lini topdi;

Kalavanning uchini yo‘qotdi - qilib turgan ishini bilmay qoldi, gangidi;

Katta gapirdi - imkoniyatiga ortiqcha baho berdi;

Katta og‘iz - 1)soxta kibr-havoli, maqtanishni yaxshi ko‘radigan 2)imtiyozli mavqega ega (kinoya)

O‘zbek tilida iboralarning ko‘p qismi so‘z birikmaga teng qurilishda. Iboralar ham erkin birikmalar singari sintaktik qurilishli, ya‘ni ular ham teng va tobe qismlarga bo‘linadi. Bunday birikmaga teng iboralar lisoniy birlik sifatida biror sintaktik bo‘lak vazifasida kela oladigan darajada Grammatik shakllanganidan keyin butunga aylana oladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1. O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDA IBORALARNING GRAMMATIK TAVSIFI (Islom Bo‘riyev Eshmirzayevich)
- ZIYOUZ.com